

Inson taqdiri

Bu dunyoga kelganimizda, bizni qanday taqdir kutayotganini hech kim bilmaydi. Inson hayoti juda murakkab va unda bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lgan juda ko'p voqealar sodir bo'ladiki, ularning qay tarzda amalga oshishini oldindan aytib bo'lmaydi. Taqdirga turli yo'llar bilan munosabatda bo'lish mumkin. Uni bizning ustimizdan to'liq hokimiyatga ega deb taxmin qilishimiz mumkin va hamma narsa faqat tasodif irodasi bilan hal qilinadi. O'zlarini fatalist deb ataydigan odamlar shu tarzda o'ylaydi va talqin etadi.

Taqdirning muqarrarligiga ishonmaydigan shaxslar ko'pincha fatalistlar bilan tortishuvlarga kirishadilar. Ularning fikriga ko'ra, inson o'z hayotini o'zi boshqaradi va taqdirining keyingi burilishi faqat o'ziga bog'liq.

Men taqdir haqidagi bu yoki boshqa qarashlarni qabul qila olmayman, chunki ular vaziyatni juda soddalashtirgandek tuyuladi. Menimcha, ko'p narsa insonga, birinchi navbatda, uning irodasi, fe'l-atvori va qat'iyatliligiga bog'liq. Shu bilan birga, bizning xohishimizdan tashqari sodir bo'ladigan narsalar ham bor va bu jarayonda qo'limizdan hech narsa kelmaydi. Masalan, otam bolaligida shifokor bo'lishni orzu qilar edi, ammo bu orzusi amalga oshmadi. Tibbiyot oliygohiga kirish imtihonlari natijasining belgilangan me'yordan past bo'lishi dadamning orzusiga to'sqinlik qildi. Otamni xursand qilish uchun bobom kechqurun u bilan shaxmat o'ynashni boshladi.

Natijada, bu o'yin otamni shunchalik o'ziga jalb qildiki, u bir necha bor shahar musobaqalarida g'olib bo'ldi. Bugungi kunda otam hakamlar hay'atining faxriy a'zosi sifatida turli shaxmat musobaqalariga taklif qilinadi.

Otam shifokor bo'lishni xohladi, ammo taqdir boshqacha qaror qildi. Kirish imtihonlaridan so'ng u taslim bo'lishi va boshqa hech narsa qilishga urinmasligi mumkin edi, ammo otam bobomning ko'magida yangi hayot yo'lini topdi.

Otamning hayoti men uchun juda ibratlidir. Uning tajribasi menga hayotda har doim ko'p imkoniyatlar borligi haqida tushuncha berdi, shuning uchun hech qachon tushkunlikka tushmaslik va muvaffaqiyatsizlikdan xafa bo'lmaslikni

o'rgandim, shuningdek, doimo yangi istiqbollarni izlash juda muhim ekanligini o'zinga shior qilib oldim.

Boymatova D.